

XITOIY TAJRIBASIDA TARBIYALANUVCHILARNING KOGNITIV RIVOJLANISHINI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XIZMAT QILUVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi

University of Business and Science oliy ta’lim muassasasi, Maktabgacha-Boshlang‘ich ta’lim va sport faoliyati kafedrası o‘qituvchisi

e.mail: shaxnozaxojimirzayeva@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22160816>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoy maktabgacha ta’limi tajribasida maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarning mazmuni, pedagogik xususiyatlari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda kognitiv rivojlanish ishchi xotira, diqqat, rejalashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, muammo yechish, nutqiy tafakkur, ijtimoiy hamkorlik va bilishga bo‘lgan motivatsiya kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar majmuasi sifatida talqin etilgan. Samaradorligi empirik va nazariy manbalar asosida yoritilgan. Xitoy tajribasida keng qo‘llaniladigan o‘yin asosidagi ta’lim, Anji Play, Conceptual Play World, metakognitiv yondashuv, tadqiqotga asoslangan faoliyat, konstruktiv faoliyat hamda ilmiy izlanishga yo‘naltirilgan kitob o‘qish texnologiyalarining rivojlantiruvchi imkoniyatlari umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: Xitoy maktabgacha ta’limi, maktabgacha tayyorlov guruhi, kognitiv rivojlanish, pedagogik texnologiya, o‘yin asosidagi ta’lim, Anji Play, Conceptual PlayWorld, metakognitiv yondashuv, ijro funksiyalari, tadqiqot faoliyati, muammoli vaziyat, refleksiya, maktabga tayyorgarlik, integrativ ta’lim, xorijiy tajriba, ta’lim muhiti.

Maktabgacha tayyorlov bosqichidagi bolalarni zamonaviy talablar darajasida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlash hamda ularda dastlabki o‘quv motivatsiyasini shakllantirish jahon pedagogikasi oldida turgan eng dolzarb strategik vazifalardan biri sanaladi. Bola shaxsining kelgusida maktab muhitiga oson moslashishi, fan asoslarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi hamda mustaqil, kreativ fikrlash qobiliyatlarining shakllanish darajasi bevosita maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llaniladigan o‘qitish texnologiyalarining maqsadli yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Shu sababli, dars jarayonlarini tashkil etayotgan pedagog-tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish metodikasi nazariyasini chuqur bilishi bilan birga, jahon miqyosida o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatgan Xitoy Xalq Respublikasining muvaffaqiyatli pedagogik yondashuvlarini milliy ta’lim standartlariga unumli adaptatsiya qila olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

Ayniqsa, 6-7 yoshli bolalarni maktab hayotiga tayyorlash davrida ularning aqliy faolligini oshirish, mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va ta’limiy refleksiyani yuzaga keltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu munosabat bilan, tadqiqotimiz doirasida xalqaro maktabgacha ta’lim amaliyotining eng ilg‘or tendensiyalarini o‘z ichiga olgan hamda milliy “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi talablariga to‘liq javob beradigan muvofiqlashtirilgan pedagogik jarayon modeli loyihalashtirildi.

Tayyorlov guruhlarida xorijiy ilg‘or tajribalar asosida o‘qitishning yaxlit pedagogik jarayon modelini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish zaruriyati quyidagi ilmiy-amaliy omillar bilan izohlanadi:

a) Bolalardagi intellektual va refleksiv o‘rishni kompleks qo‘llab-quvvatlash: Tayyorlov guruhidagi bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlariga mos keluvchi xorijiy ta’lim texnologiyalari ularning ixtiyoriy diqqatini samarali jalb qilishga, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishga hamda yangi axborotlarni tizimli o‘zlashtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

b) O‘quv jarayonida izchillik, uzviylik va mantiqiylikni ta’minlash: Pedagogik faoliyatning aniq modelini ishlab chiqish xorijiy metodlarni milliy tizimga integratsiyalashda uzviylik zanjirini kafolatlaydi. Bunda har bir mashg‘ulot va ta’limiy o‘yinda o‘quv ko‘nikmalarini soddadan murakkabga qarab, tizimli ravishda rivojlantirish maqsad qilinadi.

c) O‘quv faoliyatidagi toliqish va qiyinchiliklarning oldini olish: Ko‘pincha tayyorlov guruhi bolalari o‘quv topshiriqlarini bajarishda yoki jamoaviy loyihalarda o‘ziga xos murakkabliklarga duch kelishadi. Biz taklif etayotgan model xorijiy texnologiyalarning variativlik xususiyatidan foydalangan holda, har bir bolaning individual imkoniyatlarini inobatga olish va unga mos individual ko‘mak berish imkonini taqdim etadi.

Xitoy maktabgacha ta’limi tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, tayyorlov guruhida kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi texnologiyalar mazmunan kompleks, pedagogik jihatdan esa jarayonga yo‘naltirilgan xarakterga ega. Bu texnologiyalarda o‘yin, tadqiqot, savol, muloqot, harakat, konstruksiya, refleksiya va baholash yagona rivojlantiruvchi siklga birlashadi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, bolaga bilim tashqi talab sifatida yuklanmaydi, balki u bilan amal qilish, fikr yuritish va muloqot qilish orqali o‘zlashtiriladi. Bunday texnologiyalarda kognitiv rivojlanish ham tor ma’nodagi intellektual ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ishchi xotira, diqqat, rejalashtirish, monitoring, muammo yechish, nutqiy bayon, ijtimoiy hamkorlik va o‘qishga yondashuvlar kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali tushuniladi. Xitoy tajribasining eng muhim ilmiy-amaliy jihati ham ana shunda: u tayyorlov guruhini kichik maktab sinfiga aylantirmaydi, balki bolani keyingi maktab ta’limi uchun zarur bo‘lgan umumiy bilish mexanizmlari bilan qurollantirishga intiladi. Demak, mazkur tajriba maktabgacha ta’lim nazariyasi uchun ham, amaliy metodika uchun ham shuni isbotlaydiki, kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi haqiqiy pedagogik texnologiya – bolaning harakati, hissi, nutqi va tafakkurini bir butun rivojlanish tizimiga aylantira olgan texnologiyadir.

Shu ma’noda, Xitoy tajribasidagi tayyorlov guruhi texnologiyalarining mazmuni va pedagogik xususiyatlarini umimlashtirganda, ularning markazida bolaning o‘zi, uning o‘yini, uning savoli va uning fikrlash jarayoni turganini ko‘rish mumkin. Anji o‘yinida muhit va material bolani tadqiqotga chorlasa, metakognitiv dasturlar uni o‘z fikrlashini anglashga olib boradi; «Conceptual PlayWorld» kabi yondashuvlar savol orqali fazoviy va matematik fikrlashni chuqurlashtirsa, ilmiy izlanishga asoslangan kitob o‘qish faoliyatlari til va tafakkurni uyg‘un rivojlantiradi; ijro funksiyalariga doir tadqiqotlar esa motorika, jismoniy harakat va aqliy rivojlanishning o‘zaro bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Oila va pedagog hamkorligiga oid natijalar bolaning kognitiv o‘sishi bog‘cha va uy o‘rtasidagi mazmunli aloqalar bilan kuchayishini anglatga, rasmiy sifat baholash hujjatlari bunday jarayonni natija emas, asosan ta’lim sifati va muhitni tashkil etish orqali tushunish lozimligini belgilaydi. Shu bois, Xitoy tajribasi doirasida maktabgacha tayyorlov guruhini o‘qitish texnologiyalarini tahlil qilish bolalarni erta akademiklashtirish yo‘li bilan emas, balki ularning kognitiv tayyorligini mustahkamlaydigan, bilishga qiziqishni saqlaydigan va maktabga o‘tishni tabiiylashtiradigan integrativ pedagogik modelni anglash demakdir.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, Xitoy tajribasida tarbiyalanuvchilarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi texnologiyalar bolaga tayyor bilimni beruvchi emas, balki uning o‘yin, izlanish, mulohaza, savol-javob va refleksiya orqali bilish faolligini uyg‘otuvchi tizim sifatida shakllangan. Xitoyning 3–6 yoshli bolalar rivojlanishiga doir yo‘riqnomalari va keyingi rasmiy izohlarida bola o‘qishi bevosita tajribaga tayanishi, o‘yin asosiy faoliyat bo‘lishi, boy ta’lim muhiti yaratilishi va bolaning tabiat, amaliy harakat hamda shaxsiy tajriba orqali faol o‘rganishi qo‘llab-quvvatlanishi kerakligi ta’kidlangan. Shu asosda Anji o‘yini, Conceptual PlayWorld va metakognitiv treninglarga oid tadqiqotlar o‘yinni faqat erkin faoliyat emas, balki rejalashtirish, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, fazoviy fikrlash, muammo yechish va mulohaza yuritishga olib boruvchi rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya sifatida taqin qiladi.

Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimi uchun mazkur tajribani moslashtirish masalasi bevosita dolzarbdir, chunki amaldagi davlat talablari maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va maktab ta’limiga tayyorlashni belgilaydi, o‘yin kompetensiyasini o‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos deb qaraydi, “bilish jarayonining rivojlanishi” sohasida esa 6–7 yoshli bola bilim olishga faol qiziqish bildirishi, axborotni mustaqil topishi, oddiy aloqalarni anglashi, raqam va hisobni hayotda qo‘llashi, makon-shakl-vaqt munosabatlariga muvofiq ish tutishi hamda atrof-muhitni kuzatib tadqiq qilishi kutilgan natija sifatida belgilangan. Shuningdek, O‘zbekistonda o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish

integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillariga tayanishi, kun tartibida o‘yin, bo‘sh vaqt va pedagog rejalashtirgan faoliyatlar navbatma-navbat amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Demak, Xitoy tajribasini moslashtirish uchun konseptual asos allaqachon milliy me‘yoriy maydonda mavjud.

Bundan tashqari, 2024-yil 30-sentyabrda qabul qilingan qaror bilan maktabgacha ta‘limning davlat ta‘lim dasturini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, maktabga tayyorlov guruhlar va boshlang‘ich ta‘lim o‘quv dasturlarining o‘zaro uzviyligi va muvofiqligini ta‘minlash, 2025-2026 o‘quv yilidan takomillashtirilgan dasturlarni bosqichma-bosqich joriy etish, pedagoglar uchun xalqaro standartlar asosida o‘quv-metodik majmualar yaratish va xorijiy o‘quv-metodik majmualarni mahalliyashtirish vazifalari belgilab qo‘yildi. Shuningdek, davlat ta‘lim dasturi doirasida elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o‘quv-metodik materiallarni axborot tizimiga joylashtirib, ulardan erkin foydalanish imkonini yaratish ham nazarda tutilgan. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish va xorijda malaka oshirish yo‘nalishlari ham normativ asosda qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu holat Xitoy tajribasida sinovdan o‘tgan kognitiv rivojlantiruvchi texnologiyalarni Yangi O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishni faqat nazariy emas, balki amaliy-tashkiliy jihatdan ham asoslaydi.

Shu asosda taklif etilayotgan moslashtirish metodikasi integrativ-adaptiv xarakterga ega bo‘lib, uning markazida tarbiyalanuvchining bilish kompetensiyasi, o‘qishga ichki tayyorligi va metakognitiv faolligi turadi. Metodikaning mohiyati shundaki, Xitoy tajribasidagi o‘yin–kuzatuv–refleksiya sikllari O‘zbekiston davlat talablarida belgilangan bilish, nutq, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanish sohalari bilan bir butun pedagogik jarayonga birlashtiriladi. Bu yerda mexanik ko‘chirish emas, balki mazmunan moslashtirish ustuvor bo‘ladi: Anji o‘yinidagi katta hajmli erkin materiallar mahalliy sharoitda yog‘och bo‘laklari, qutilar, ip-arqon, qum, suv, gil, dona, tayoqcha, milliy qurilish elementlari yoki maishiy xavfsiz qayta ishlanuvchi vositalar bilan almashtiriladi; Conceptual PlayWorlddagi dramalashtirilgan syujetlar esa milliy ertak, mahalla hayoti, bozor, hunarmandchilik, tabiat va oilaviy turmushga yaqin mazmun bilan boyitiladi. Bu taklif mantiqan O‘zbekistondagi integrativ rejalashtirish talablari hamda Xitoydagi o‘yinga tayangan, muhit orqali o‘rgatuvchi yondashuv o‘rtasidagi uyg‘unlikdan kelib chiqadi.

O‘zbekiston maktabgacha ta‘lim tizimida Xitoy tajribasidagi ilg‘or texnologiyalarni joriy etishda ularni milliy qadriyatlar, davlat ta‘lim standartlari va **"Ilk qadam"** davlat o‘quv dasturi bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, maktabga tayyorlov guruhlarida o‘yin asosida ta‘lim, STEAM elementlari, loyiha faoliyati va reflektiv o‘yinlarni keng qo‘llash bolalarning kognitiv rivojlanishini yanada samarali qo‘llab-quvvatlaydi. Xitoy maktabgacha ta‘lim tizimida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarbiyalanuvchilarning kognitiv rivojlanishini ta‘minlashda yuqori samaradorlikka ega. Anji Play, STEAM, loyiha asosida ta‘lim, mental arifmetika va raqamli pedagogik vositalar bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, ijodkorlik, diqqat va xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarni O‘zbekiston maktabgacha ta‘lim tizimiga ilmiy asosda moslashtirish bolalarning maktab ta‘limiga tayyorgarligini kuchaytirish, ta‘lim sifatini oshirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktab ta‘limiga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kognitiv rivojlanishi mantiqiy o‘yinlar, milliy-vizual vositalar va erta STEM texnologiyalarining oqilona integratsiyasi orqali samarali kechadi. Ushbu pedagogik texnologiyalarni milliy maktabgacha ta‘lim tizimiga tatbiq etish bolalarning maktab ta‘limiga kognitiv hamda psixologik tayyorlik darajasini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jackson I., Geng Y. (ed.). *Rethinking Childhood in Modern Chinese History*. – Taylor & Francis, 2025.
2. Cheng, X. Cultivating young children's positive emotions and cognitive agency: Based on Anji Play. *Journal of Early Childhood Education Research*, 18(2), p. 45–58, 2023.
3. Ministry of Education of the People's Republic of China. (2012). *3–6 Years Old Children Development Guidelines [3–6岁儿童学习与发展指南]*. People's Education Press, 2012.

4. Pio, A. C. V., & Zhang, Y. Crossing borders in early childhood education through Anji Play: Supporting self-regulation and problem-solving in school-readiness groups. *Cultural Psychology & Education*, 32(1), p.112–126, 2026.

5. Tungalag, O., & Wang, L. Research on metacognitive strategies of children's self-regulated learning: The role of "Draw-and-Tell" reflection in preschool settings. *Health Psychology & Educational Research*, 12(3), p.204–218, 2024.

6. Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi [XORIJY TAJRIBALAR ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-NAZARIY MANBALARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: XITOIY MAKTABGACHA TA’LIMI MISOLIDA | Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar](#). b.81-84, 2026.